

INSULT KASALLIGINING TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI

Laylo Atajanova Uktamovna

Urganch Davlat Universiteti

Psixologiya yo`nalishi magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6178364>

Annotatsiya: Maqolada insult kasalligini o'rganilishining dolzarbligi, uni oldini olishda psixologik yondashuv, mamlakatimizda insult kasalligi bilan bog'liq olib borilgan islohotlar, xorijiy mamlakatlarda insult kasalligini psixologik tatqiq etishga doir bir qancha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Insult, asab kasalliklari, ishemik insult, gemorragik insult, depressiya

Bugungi kunda butun dunyoda asab kasalliklari o'sish tendensiyasiga ega. Asab kasalliklaridan eng ko'p tarqalgan insult dunyoda o'lim sabablari bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Jumladan, dunyoda har yili kuzatiladigan birlamchi insultlar soni 15 mln. dan oshadi. Bu ko'rsatkich AQSh da yiliga 750 000, Rossiyada 500 000, Ukrainada 100 000, O'zbekistonda 600 ga teng [1]

Rossiyada ishemik insult kasalliklar bo'yicha 80% ni tashkil etadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, insult tarqalishi dunyoda har 100 ming kishiga 460-560 holatga to'g'ri keladi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar orasida bu ko'rsatkich Yaponiyada eng yuqori - yiliga har 100 ming kishiga 569 ta, eng past - Buyuk Britaniya va Skandinaviya mamlakatlarida - 355-365, Rossiyada - 1050; yangi tashxis qo'yilgan insult holatlarining soni yiliga 100 ming aholiga 100 dan 200 gacha o'zgarib turadi.

1970 yildan beri iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda har yili insultdan o'lim darajasi 7 foizga kamaymoqda. Masalan, AQShda so'nggi 10 yil ichida ushbu turdagi patologiyada o'lim 50% ga kamaydi.

Ishemik insultda o'lim darajasi 39%, gemorragik insultda 71% tashkil etdi. [5]

O'lim sabablari bo'yicha yetakchi o'rinda turuvchi Insult miya qon aylanishining o'tkir buzilishi bo'lib, bu miya funksiyasining bir necha kun davom etuvchi xastaligiga olib keladi. Insultning ikki ko'rinishi gemorragik (miyaga qon quyilishi) va ishemik holatda (miya infarkti) farqlanadi. Insult o'lim sababchisi sifatida yurak qon-tomir va onkologik kasalliklardan so'ng 3 o'rinda turadi. Ishemik insult gemorragik insultga nisbatan 5 marta ko'p uchraydi.

O'zbekistonda miya insulti bilan xastalanish ming nafar aholiga nisbatan 9 foizdan 14 foizgacha to'g'ri keladi. Ishemik insult miyaning to'liq yoki qisman qon bilan ta'minlanishining to'xtashi oqibatida yuzaga keladi. Insultlar ichida ishemik insult (IS) ustunlik qiladi, ularning ulushi 80% gacha

[23, 62, 83]. An'anaga ko'ra, ISning katta qismi keksalikda rivojlanadi, ammo so'nggi paytlarda ma'lum yosh guruhlarida(40-59), turli iqlim va geografik mintaqalarda insultning tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, insultning tarqalishi sezilarli darajada oshgan. Miyadagi qon aylanishining o'tkir buzilishi bo'lgan gemorragik insult bilan kasallanish darajasi va bemorlarning yoshi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, gemorragik insult ning eng yuqori darajasi 60 yoshdan 75 yoshgacha. Shunday qilib, 50-59 yoshda insult bilan kasallanish 1000 aholiga 7,4 ni, 70-75 yoshda esa 1000 aholiga 20 ni tashkil qiladi. Mamlakatimizda insult bilan kasallanish darajasi aniq ma'lum emas, chunki u butun mamlakat bo'ylab insult reestrining yo'qligi sababli, ammo u JSST ma'lumotlaridan kam bo'lishi mumkin emas.[4]

"Biz jismoniy faollik miyani kasallik va nuqsonlardan himoya qilishiga yanada ko'proq guvoh bo'lmoqdamiz. Jismoniy faollik va insult oqibati darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni yanada yaxshiroq tushunishimiz uchun ko'proq kuzatuv va tajribalar olib borishimiz kerak bo'ladi", — deydi Shvetsiyaning Gotenburg universiteti olimasi Katarina Sunnerxagen.

Sunnerxagen va uning hamkasblari bir necha yil davomida universitet klinikasida insultga duchor bo'lgan va davolanish kursini o'tagan 2300ga yaqin bemorga tegishli ma'lumotlarni o'rganib chiqishdi. Shifokorlar bemorlarni davolash birga ularning qanday taomlar iste'mol qilishi, turmush tarzi va miya qon tomirlari ishi bilan bog'liq boshqa omillarni o'rgandi. Ma'lum bo'lishicha, insultning og'ir shakli rivojlanishining asosiy sababi jismoniy faol bo'lmaslik va ko'p o'tirish ekan. Ana shunday sust hayot kechiruvchilar miyaga qon quyilishiga muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadiganlarga nisbatan 1,2 marta ko'proq duch kelar ekan.[3]

Rossiyalik tibbiyot fanlari nomzodi Irina Sorokina "Ishemik insultli bemorlarda depressiya" mavzusida tadqiqot olib brogan. Tadqiqotining maqsadi Ishemik insult bilan og'rgan bemorlarda depressiv buzilishlarni aniqlash, psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, insultdan keying depressiya bilan og'rgan bemorlarning kognitiv holatini tahlil qilishdan iborat bo'lib, undan olingan natijalarga ko'ra, Depressiya bemorning klinikada nevrologik holatini to'liq baholashni qiyinlashtirishi, Insult bilan og'rgan bemorlarning reabilitatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tez-tez uchraydigan omillar orasida psixoemotsional sohadagi va yuqori aqliy funktsiyalar sohasidagi o'zgarishlar ekanligi, Hatto intellektual sohaning o'rtacha pasayishi, Ishemik insult bilan

og'rigan bemorlarga ko'pincha apatiya, xotira pasayishi, kognitiv buzilishlar kabi tashxis qo'yilishi, bundan tashqari hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtirishi aniqlandi. Yuqorida aytilganlarning barchasi depressiv kasalliklar bilan ishemik insult bilan og'rigan bemorlarni klinik va psixologik tadqiq qilishning dolzarbligini tushuntiradi.[2]

O'lim sabablari bo'yicha yetakchi o'rinlarda turuvchi insult kasalligini psixologik jihatdan o'rganilishini muhimligi shundaki, bu bemorning hislari, kechinmalari, o'zini qanday his qilishi, o'z -o'zini kuzatishi kasalligini va sabablarini qanday tasavvur qilishini ko'rsatib beradi. Bu bo'yicha A.R.Luriya 1939 yilda o'zining kasallikning ichki manzarasi konsepsiyasini ilgari suradi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, insult kasalligining ichki manzarasi bu bemorning psixik dunyosi bo'lib, idrok, sezgi, emotsiya, effekt, konflikt, psixik kechinmalarini va jarohatlarini ifodalaydi. Kasallikning ichki manzarasini belgilovchi omillariga, kasallikning o'zi, bemorning xususiyatlari, uni o'rab turgan ijtimoiy muhit va shu kabilar kiradi. Ushbu omillar ta'sirida insonda o'ziga, o'zining kasalligiga, atrofdagilarga munosabati shakllanadi, o'ziga beradigan bahosi o'zgaradi, turli komplekslar, xavotir, psixosomatik buzilishlar yuzaga keladi. [6]

Mamlakatimizda psixologlardan Z.Ibadullayev, U.H.Alimov, B.G'.Gofurov, M.M.Asadullayev tibbiy psixologiy, asab kasalliklari, nevrologiya turli sohalarda psixologik xizmat masalalari bo'yicha, shuningdek, D.Urazbayeva, M.Karamyan, turli xil kasalliklarda bemor psixikasini o'rganish holatlarini tadqiq qilganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insult bilan kasallangan bemorlarda hayot sifatini o'rganishga bag'ishlangan ishlarning aksariyati bemorlarning ijtimoiy, kasbiy, oilaviy jihatlarini buzilish darajasini baholashga qaratilgan. Ammo nafaqat O'zbekistonda balki rivojlangan davlatlarda ham insult kasalligi bilan og'rigan bemorlarning hayot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga xususan klinik, ruhiy xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga yetarlicha e'tibor berilmagan. Asab kasalliklari bilan og'rigan bemorlarning hayot sifatini yaxshilash muammosiga yondashuvlar haligacha aniqlanmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibadullayev.Z.R.Asab kasalliklari.Darslik T.2013 SSV ma'lumotlari

2. Сорокина, Ирина Борисовна кандидат медицинских наук ” Депрессия у больных с ишемическим инсультом” тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 14.00.13,
3. 3 <https://n.neurology.org/content/91/16/e1461>
4. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/2393343/>
5. <https://mongoliawool.ru/uz/zhenskaya-odezhda/statistika-insultov-v-mirovoi-istorii-fundamentalnye-issledovaniya/>
6. <https://fayllar.org/>